



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2024-YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)



Sanoat statistikasi
boshqarması
Tel.: 71-203-88-07


Sanoat statistikasi
boshqarması
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- iyun oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida shahar korxonalari tomonidan 68,9 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (79,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 55,0 trln so'mni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 8,4% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 10,8% ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 11,5 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 22,8 % ga o'sish kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,0 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyun oyida, % da)



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagʻi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft



Shagʼal




Chaqiq tosh



**Toq‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar - iyun | 2024-yil yanvar - iyun | Farqi +/- |
|------------------------------------|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Neft, ming t. | 337,5 | 313,0 | -24,5 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 16 462,3 | 15 965,6 | -496,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 334,3 | 358,1 | 23,8 |
| Chaqiq tosh ming t. | 247,9 | 136,8 | -111,1 |
| Shag‘al t. | | | |

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,0 trln.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(2024- yil yanvar-iyun oyi% da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,7 % ni (2023-yilning yanvar-iyun –oyida – (4,2%), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,8 % (26,3%), o'rta-quyi texnologiyali – 35,7 % (29,5%) va quyi texnologiyalisi – 35,8 % (40,1%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,8 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,8 % (2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 18,8 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % (2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,2 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag mahsulotlarning o'sish sur'ati

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3826,0 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (61,3 % ga oshgan), 18 486,3 tonna paxatadan yigirilgan ip (8,4 % ga oshgan), 918,2 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (2,4 martaga oshgan) va hamda 16 543,6 tonna Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar (42,0 %) ishlab chiqarilishi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar- iyun | 2024-yil yanvar- iyun | Farqi +/- |
|--|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna. | 62,7 | 31,1 | -31,6 |
| Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna. | 17,0 | 18,5 | 1,5 |
| Margarin va yormalar tonna. | 1,9 | 0 | -1,9 |
| Pivo – mln litr | 45,3 | 49,7 | 4,4 |
| Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona | 342,9 | 235,8 | -107,1 |
| Tamaki mahsulotlari, mln. dona | 704,8 | 1 823,3 | 1118,5 |
| Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va lakklar, t. | 7 900,0 | 7 455,1 | -444,9 |

Metallurgiya sanoati

(2024- yil yanvar- iyun oyida)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oyida metallurgiya sanoati ulushi 13,5% ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 19,2% ga ko'paygan bo'lsa,


2024-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 18,8% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 111,7 va ishlab chiqarish hajmi 10 358,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar- iyun oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,2% ni, uning fizik hajm indeksi esa 4,9% ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2546,5 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- iyun oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi ulushi 12,8% ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga ko'paygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,2% ni va ishlab chiqarish hajmi 7121,5 mlrd so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oyida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,2% ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,1% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,0% ni va ishlab chiqarish hajmi 5 576,6 mlrd so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,4% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-iyun oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,5% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,7% ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 2 493,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oyida)




2023-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8% ni, fizik hajm indeksi esa 104,8% ni tashkil etgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1% ni, fizik hajm indeksi 115,2% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 181,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-iyun oyida)

2023-yilning yanvar-iyun oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 127,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2% ni, fizik hajm indeksi 9,9% ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1 749,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-iyun oyida)




2023-yilning yanvar-iyun oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 37,1% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4% ni, fizik hajm indeksi 20,8% ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 224,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oyida)



2023-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 11,3% ga kamaygan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2%ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 119,6% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 2 883,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oyida)

2023-yilning yanvar-iyun oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,3% ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5% ni, fizik hajm indeksi 106,1% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 457,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-iyun oyida

trln.
so'm



FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,3 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8% ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,8% ga oshgani kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-iyun oyida, % da)

2023- y.

3,5

yanvar-iyun

2024- y.


4,8

yanvar-iyun

Elektr, gaz, buq' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-iyun | 2024-yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|--|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 1 937,5 | 1 752,6 | -184,9 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 5 982,4 | 5 291,8 | -690,6 |
| Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm. | 457,6 | 645,5 | 187,8 |

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**
(yanvar-iyun oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0% ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar-iyun oyida, % da)**



| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-iyun | 2024-yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|-------------------------|-------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 88,2 | 182,1 | 93,9 |
| Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna | 156,0 | 121,3 | -34,7 |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm | 165,2 | 305,1 | 139,9 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 70,7% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 84,7 foizga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 10,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-iyun oyida Toshkent shahrida 749 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16